

Ashurova Go'zalxon Komil qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich

BOSHLANG'ICH SINFDA MATEMATIKA O'QITISH VOSITALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qitish vositalari nima ekanligi, ularning ahamiyati, o'qitish vositalarining turlari, darslikning ahamiyati va ko'rgazmali qurollarning turlari, matematikada ishlatiladigan ko'rgazmali qurollar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: O'qitish vositalari, matematika o'qitish vositalari, darslik, qo'llanma, ko'rsatma qo'llanma, ko'rgazmali qurollar.

O'qitish vositalari-bu o'qitish jarayonida foydalaniladigan xilma-xil materiallar va qurollardir. Ulardan foydalanish orqali belgilangan maqsadga tez va muvaffaqiyatli erishish mumkin. O'qitish vositalarining didaktik vazifasi- o'quv materialining o'zlashtirilishini tezlashtirish va samarali natijaga erishishdan iborat.

O'qitish vositalari-o'quv muassasasining material-texnik ta'minlanishining texnik qismi hisoblanadi. O'quvchilarda zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilish, o'rganish faoliyatini boshqarish, barkamol shaxs qilib tarbiyalash, ularni rivojlantirish uchun o'quv-tarbiyaviy jarayonida foydalaniladigan materiallar tizimi.

O'qitish vositalarini ikki guruhga ajratish mumkin:

- O'qitish vositalari;
- Ta'limiy vositalar.

Ularning farqi shundan iboratki, o'qitish vositalaridan o'qituvchi o'quv materialini tushuntirishda foydalanadi. Ta'lim vositasidan esa o'quvchi shu o'quv materialni o'rganishda foydalanadi.

O'quv vositalarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- ✓ O'quv jarayonining yordamchi vositalari;
- ✓ Bosma asosdagi vositalar;
- ✓ O'quv ko'rgazmalilik vositalari;
- ✓ Amaliy harakatlarni amalga oshirish vositalari;
- ✓ O'qitishning texnik vositalari.

O'quv jarayonining yordamchi vositalari-o'quv jarayonini jihozlashning zarur tarkibiy qismi bo'lsa ham, ular didaktik vazifa bajarmaydi. Ularga doska, bo'r, qog'oz va o'quv qurollari kiradi.

Matematika o'qitish vositalari-bu o'quv jarayonida foydalaniladigan barcha o'quv qo'llanmalardir.

Matematika o'qitish vositalari:

- 1.Darslik va qo'llanmalar;
- 2.Ko'rsatma qo'llanmalar;

3.O'qitishning texnik vositalari.

Darslik-biror fanga doir bilim asoslarini ma'lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma'naviy-g'oyaviy, ilmiy uslubiy saviyada yozilgan kitob. Darslik o'quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi hisoblanadi. Darsliklar 2 guruhga bo'linadi: o'quvchilar uchun darsliklar, talabalar uchun darsliklar. Darsliklar har doim dastur talabiga moslab tuziladi. Darsliklar o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan talablar darajasini belgilab beradi va undan murakkablashtirish mumkin emas.

Boshlang'ich sinf matematika darsliklarda topshiriqlar va mavzular osondan qiyinga qarab boradi. Topshiriqlar har bir sinf o'quvchilarining bilim darajasi va o'zlashtirish qobiliyatiga moslab berilgan. Hozirgi Yangi avlod darsliklari har chorak uchun alohida qilib ishlangan. Ya'ni bir o'quv yili uchun matematika fanidan 4 ta darslik bo'ladi. Matematika darsliklarining har bir mavzusida 10-12 ta topshiriq berilgan. Dars davomida barcha topshiriqlarni bajarish majburiy emas. O'qituvchi o'quvchilarning bilim darajasiga qarab topshiriqlarni bajartirishi kerak. Yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchilar barchasini bajarishi mumkin, lekin pastroq o'zlashtiruvchi o'quvchilar bajara olmaydi.

Ko'rsatma qo'llanmalarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- Tabiiy qo'llanmalar (narsalar, daftar, kublar va h.k);
- Tasviriy qo'llanmalar (rasmlar, qo'llanmalar, belgilar, raqamlar, o'quv diafilmlar va h.k).

Ko'rgazma quollaridan foydalanishning bosh maqsadi o'quvchilarni xususiylikdan umumiylikka yetaklashdir. Ko'rgazma quollar oldiga qo'yilgan talablar:

- 1.Eстетik didli qilib tuzilgan bo'lishi kerak.
- 2.Sinfdagi barchaa o'quvchilarga ko'rinadigan bo'lishi kerak.
- 3.Ortiqcha bezaklar bo'lmasligi kerak.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida ko'rgazma quollarining turli xil ko'rinishlari ishlatiladi. Shunga qarab ko'rgazma quollarining quyidagi turlari mavjud:

1. Bizni qurshab olgan muhitdagi barcha narsa va predmetlar.
- 2.O'quvchilarga tanish bo'lgan narsa va predmetlarning tasviri;
- 3.Jadvalllar;
- 4.Hisob quollari;
- 5.Diafilm va diapozitlar;
- 6.O'lchov asboblari;
- 7.Didaktik materiallar.

Ko'rgazmalar, o'quv vositalari o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirishda, ularga qo'shimcha bilimlar berishda, o'quvchilarnin fikrlashini kengaytirishda alohida ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E, Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. (O O‘Y uchun) Toshkent. “O‘qituvchi” 2004 yil.
2. Jumayev M.E, Boshlang‘ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2006 yil.
3. Tadjiyeva Z.G., Abdullayeva B.S., Jumayev M.E., Sidelnikova R.I., Sadikova A.V. Metodika prepodavaniya matematiki.-T. “Turon-Iqbol” 2011.
4. Saidova M, Dilova N, Abdullayeva B, ” Ta’limda multimedia texnologiyalardan foydalanish”. Toshkent “O‘qituvchi” 2021 yil.
5. Saidaova G, Yusufzoda Sh, Yarashov M, ” Matematika o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar” Buxoro «Durdona» nashriyoti-2021 yil